

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN KO‘TARMA TRANSPORT MASHINALARI VA USKUNALARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Ko‘tarma transport mashinalari va uskunolari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Ko‘tarma transport mashinalari va uskunolari

- 1.Ko‘tarma transport mashinalarning umumiy tuzilishi;
- 2.Ko‘tarma transport mashinalari asosiy elementlari;
- 3.Ko‘tarma transport mashinalarining elektr jihozlari;
- 4.Kranlarning xavfsiz ishlashini ta’minlovchi qurilmalar;
- 5.Ko‘tarma transport mashinalarga TXK.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Ko'tarma transport mashinalarning umumiy tuzilishi.	Ko'tarma transport mashinalar klassifikatsiyasi, qisqacha tavsifnomalarini, ko'tarma transport mashinalari va uskunalarining umumiy tuzilishini, ko'tarma transport mashinalari agregat, tizim, mexanizm, detal, uzal, agregat, dvigatel haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	17,5 %	7 ta
2	Ko'tarma transport mashinalari asosiy elementlari.	Ko'tarma transport mashinalari dvigatelinining umumiy tuzilishini, yuk ko'tarish qurilmalari va kranlar turini, domkratlar, ko'tarma transport mashinalari mexanizm va tizimini, ko'tarma transport mashinalari dvigatelning asosiy ko'rsatkichlari, ko'tarma transport mashinalari ishchi sikllarini, ko'tarma transport mashinalari detal va mexanizmlarini, ko'tarma transport mashinalari texnologik ish jarayonlari, ko'tarma transport mashinalari hisobi, ko'tarma transport mashinalari yuk ko'taruvchi va tortuvchi egiluvchan organlari, ko'tarma transport mashinalari yuritmalari haqida bilim va konikmalarga ega bo'lishi kerak.	20,0 %	8 ta
3	Ko'tarma transport mashinalarining elektr jihozlari.	Ko'tarma transport mashinalari elektr tok manbaini, ko'tarma transport mashinalari elektrdan foydalanish xavfsizligini, ko'tarma transport mashinalari to'xtatgichlari va tormozlari haqida bilim va konikmalarga ega bo'lishi kerak.	10 %	4 ta
4	Kranlarning xavfsiz ishlashini ta'minlovchi qurilmalar.	Kranlarning xavfsiz ishlashini ta'minlovchi qurilmalari va jihozlari, harakatlanish mexanizmi va boshqarish mexanizmlarini, ishchi va qo'shimcha jihozlari, burish mexanizmini, kranlar turg'unligi, yuk ko'tarish mashinalari metall konstruksiyalari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	25,0 %	10 ta
5	Ko'tarma transport mashinalarga TXK.	Ko'tarma transport mashinalarga texnik xizmat ko'rsatishning mavjud tizimini, ko'tarma transport mashinalari ishchi jihozlariga TXK, ko'tarma transport mashinalari qismlariga TXK ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	27,5 %	11 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	25 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	25 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. N.B.Muxamedova, Ko‘tarish-tashish mashinalari. O‘quv qo‘llanma. T.// 2024// “Kreativ fikrlash nashriyot matbaa uyi”
2. T.Xankelov, R.O‘.Shukurov. Avtokranlar, yuklovchi mashinalardan foydalanish. Toshkent “Iqtisod-moliya” 2012.
3. Davidboev B.N., Davidboeva N.B. Ko‘tarish-tashish mashinalari. Toshkent. 2017y.,
4. Davidboev B.N., Mirzaxonov YU.U., Davidboeva N.B. Yuk ko‘tarish mashinalari va mexanizmlari. Toshkent. 2007 y.,
5. Lawrece K. Shapiro., Jay P. Shapiro. Cranes and derricks. Fourth edition, New York 2011.
6. Mikell P.Groover. Fundamentals of modern manufacturing materials, Processes and systems. USA, 2016
7. Tojiev A. “Qurilish mashinalari” Toshkent 2000 y
8. Александров М.П.Подъемно-транспортные машины. М.: Машиностроение.2000
9. Вайнсон. А.А. Подъемно-транспортные машины. М.: Машиностроение . 1994 г
10. Справочник по кранам И и ЭЕ част. Под ред. М.М. Гохберга. Л.: Машиностроение. 1999 г.,
11. Sh. Shoobidov, S. Musayev. “Ko‘tarish, transport mashinalari” «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2007.